

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA KO‘RGAZMALI QUROLLAR VA TARQATMA MATERIALLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Ergasheva Maxpiratxon Abdullayevna

*Samarqand viloyat Qo'shrabot tumani 84-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘limda ko‘rgazma qurollar hamda tarqatma materiallari, ulardan foydalanish texnologiyasi hamda samarasi haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tarqatma materiallari, boshlang‘ich ta‘lim, texnologiya, ko‘rgazma.

Mamlakatimizda zamon talablariga hamohang bo‘lgan o‘qituvchi o‘quvchilarning bilim darajalariga qarab vazifalarni belgilashi lozim. Sababi darslardagi bir xillik, faqat kitobdagi ma‘lumotlar bilan cheklanib qolish bugungi kun intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan yoshlarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini susaytirishi mumkin. Boshlang‘ich ta‘limda darslarni ko‘rgazmali qurollar va tarqatma materiallaridan foydalanish texnologiyasini tashkil etish haqida fikr yuritishdan oldin ulardan foydalanish haqida o‘rganib chiqsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ko‘rgazmali qurollar va tarqatma materiallaridan foydalanish texnologiyas- bu o‘qituvchilarning turli xil o‘qitish uslublarini birlashtirib yoki ularni alohida qo‘llash orqali talabalarda mustaqil o‘rganish qobiliyati, dars atmosferasini idrok etish, tushunish va va kerakli bilimlarni egallash darajasi yuqori bo‘lgan ta‘lim jarayoni hisoblanadi . Shuningdek, bu o‘z o‘lchovlari bilan baholanishi kerak bo‘lgan keng tushunchadir. Shuning uchun bunda o‘qitish, ta‘lim sifatini oshirish uchun tashkil etilgan turli xil murakkab jarayonlar majmuasi Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘zi o‘qitayotgan o‘quvchilarning bilim salohiyatiga mos ravishda vazifalarni belgilashi lozim. Shunday ekan, men ham boshlang‘ich sinf darslarida o‘z tajribamda qo‘llanilgan va yuqori samara bergan tarqatma materiallar, ulardan foydalanish tartibi, samarasi va darslarni qiziqarli o‘tishidagi ahamiyati haqida

to'xtalib o'tmoqchiman. Jumladan, Grammatik mavzularni o'qitishda ham ko'rgazma qurollar hamda tarqatmalardan foydalanish juda yaxshi samara beradi.

Tabiat hodisalarini bildiruvchi otlar	Transport vositalarini bildiruvchi otlar	Shaxslarni bildiruvchi otlar	Kishilarning kasblarini bildiruvchi otlar
vulqon	vokzal	farzand	shifokor
bo'ron	metro	ona	kutubxonachi
zilzila	avtobus	nabira	Cho'pon
	velosiped	odam	tikuvchi
		O'quvchi	
		aravakash	

Yuqoridagi kabi jadvalli ko'rgazmalar o'quvchilarning xotirasini mustahkamlab, mavzuni tez va oson o'zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarda ko'rish, eslab qolish ko'nikmasini shakllantiradi. O'quvchilar mustaqil fikrlaydilar va misollar keltirish orqali tushunganlarini aytib beradilar. Shuningdek, o'qish darslarida savollarga javob olish maqsadida ham tarqatmali materiallardan foydalanish barcha o'quvchilarni darslarda to'liq ishtirokini ta'minlaydi va e'tiborli bo'lishga undaydi.



Bu kabi topshiriqlarni bajarishga vaqt sarflash o'quvchilar faolligini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz. Shuning uchun boshlang'ich ta'limda ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallaridan foydalanish texnologiyasi o'quvchilarning yosh xususiyati va real o'quv imkoniyatlariga muvofiq kelishi lozim. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf ona tili darslarida otlarning turlarini o'rgatish maqsadida quyidagi tarqatma ham ahamiyatli. Bunda o'quvchilar tarqatmalarni birlashtiradilar va mavzu yoritilishiga erishadilar.

17-mashq

O'QING. Ular qaysi so'z turkumi ekanini ayting. Har bir so'z guruhiga o'zingiz yana uchtadan so'z yozing.



Demak, bugungi kun o'qituvchisi pedagogik va axborot texnologiyalar, interfaol uslublar bilan qurollansagina o'quv-tarbiya jarayonini qiziqarli tashkil eta oladi. Shundagina u ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan to'g'ri va oqilona foydalangan bo'ladi. Bu esa boshlang'ich ta'limda ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallaridan foydalanish texnologiyasining qanchalik muhim ekanligini ko'rsatib beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar"-T.:2017-yil.
2. Toshtemirova Saodat Abdurashidovna. Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida //Uzluksiz ta'lim.-2020.- № 1-son
3. Darsliklar va metodik qo'llanmalar, internet saytlari.